

## TUMAN HOKIMI “MEXANIZATORLAR UYI”DA BO’LDI



Fermer xo’jaliklarida yerni qandayligini, unga qachon ozuqa kerakligini fermerdan ko’ra, mexanizatorlar yaxshiroq biladi. G’o’zaga qatorma-qator ishlov beradigan mexanizatorlar fermerlarning qanoti hisoblanadi. Shuni inobatga olib, Qo’shtepa tumanida ham “Mexanizatorlar uyi” tashkillangan. Har bir MMTP hududida joylashgan “Mexanizatorlar uyi”da bugungi kunda barcha sharoitlar yaratilgan.



Bugun tuman rahbari A.Abdullayev "Baxt Yo'Idosh Oxun" MMTP hududida tashkil etilgan “Mexanizatorlar uyi”da bo’lib, 2024 yil hosili uchun yetishtirilayotgan g’o’za maydonlarida faoliyat olib boradigan mexanizatorlarga yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishdi. Mas’ullarga esa mexanizatorlar, ishchilar uchun barcha qulayliklar yaratib berish vazifalari topshirildi.

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#),

2024-04-22 21:27:50